

MURAKKAB MAVZULARNI ANIQLASH VA UALAR USTIDA IJODIY ISHLASH

Ikromova Dilrabo Axtamovna

Buxoro viloyat G'ijduvon tumanidagi 27- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bugun o'qituvchilardan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, har bir darsni samarali va mazmunli o'tish, interfaol usullar bilan boyitish talab etilmoxda. Bu esa pedagogni yangi- yangi g'oyalarni hayotga tadbiq etishga, o'z ustida tinimsiz ishlashga undaydi.

Bugungi kunda ta'lrim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi jadallashmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lrim jarayoniga joriy etish ta'lrim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Jumladan, "Murakkab mavzularni aniqlash va ular ustida ishlash" o'qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi, kasbiy salohiyati, izlanuvchanlgiga bevosita bog'liq. Quyida boshlang'ich sinflarda murakkab mavzularni aniqlash,murakkablik darajasi,sabablari va uni o'quvchiga yetkazishning optimal usullari xususida to'xtalib o'tmoqchiman. Albatta, sinfdagi har o'quvchi ham mavzuni bir xilda o'zlashtira olmaydi. Murakkab mavzularni o'quvchiga yetkazishdan oldin murakkablik darajasi, sabablarini o'rganish lozim. Bola nima uchun mavzuni o'zlashtira olmayapti? Bunga sabab mavzuning murakkabligimi yoki bolaning qobiliyati, imkoniyat darajasimi? Bu savollarga javob topish uchun, avvalo, o'quvchi psixologiyasi, qobiliyati, layoqatini yaxshi o'rganishimiz lozim. Biz o'quvchining qobiliyati, diqqati, iqtidori kabi xarakterli xususiyatlarni bilib so'ng ta'lrim berish jarayoniga uni to'g'ri yo'naltira olsak yuqori samaradorlikka erishamiz. Murakkab mavzularni o'quvchiga yetkazish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslaridagi murakkab mavzulardan biri bu "Bo'g'in va bo'g'in ko'chirish " mavzusidir. Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi.O'quvchilar so'zni bo'g'inga bo'lismada so'zga nechta unli tovush bo'lsa,shuncha bo'g'in bo'ladi degan tushunchaga asoslanadilar. Ko'p yillik ish tajribamga tayangan holda shuni aytishim mumkinki, bo'g'in va bo'g'inga ko'chirish 1-sinfdan 4-sinfgacha o'rgatib borilsada,o'quvchilar bo'g'in ko'chirish , ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlar yoki harf birikmali so'zlarni bo'g'in ko'chirishda xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Ba'zi hollarda esa berilgan qatorning chetigacha yozib sig'may qolgan bir yoki ikki harfni boshqa yo'lga ko'chirishadi. Masalan, daraxtl -ar, Muqadd -as kabi.Bu xatolikni tuzatishda o'quvchiga ketma- ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni bo'g'inga bo'lismada bittasi birinchi yo'lda ikkinchisi ikkinchi yo'lga ko'chirilishini ta'kidlash lozim :Muqad-das. Ko'p hollarda bola so'zlarni og'zaki bo'g'inga to'g'ri ajrata oladi, lekin ko'chirishda xatoga yo'l qo'yadi. Sababi bola bo'g'inga ajratish bilan bo'g'in ko'chirishni bir-biridan farqlay

olmaydi. Bunday hollarda biz bolaga bo'g'inga ajratish bilan bo'g'in ko'chirish bitta narsa emasligini to'g'ri tushuntira olishimiz kerak. 4-sinf ona tili darsligida "Bo'g'in" va "Bo'g'inga ko'chirish" mavzulari bor. Bu mavzuni o'tishda, avvalo, bo'g'in ko'chirish qoidalarini ilmiy jihatdan o'quvchiga tushuntirish lozim.

1. Bo'g'in bir unlidan iborat bo'lishi mumkin: o-na, o-dam.
2. Bo'g'in bir unli va bir undosh tovushdan tuziladi: ol-ma, bo-la
3. Bo'g'in bir unli bir necha undosh tovushdan tuziladi: mak-tab, sinf kabi.

Bo'g'in ko'chirish esa yozuvda bir yo'lga sig'may qolgan so'zlarni qoida asosida bo'g'inlab ko'chirishdir: Va-tan, sha-har, ten-nis. Shu o'rinda o'quvchiga so'z boshida bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni oldingi yo'lga qoldirib bo'lmashligi: o-najon emas ona-jon so'z oxirida bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni esa keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmashligini tushuntirish kerak bo'ladi: mudofa-a emas mudo-faa kabi. Men bunday mavzularni o'tishda turli interfaol usullar, multimedia ilovalari, ta'limiy o'yinlar, tarqatma materiallardan ko'proq foydalanishga harakat qilaman. Sababi ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi. Ta'limiy o'yinlar har bir o'quvchida jamoa bo'lib ishslash, tezkorlik, xushyorlik, bilimdonlik, mustaqillik kabi ijobjiy sifatlarni shakllanishiga yordam beradi.

Dars jarayonida AKT dan foydalanishning qulaylik tomoni shundaki, o'quvchi namoyish etilayotgan hodisalarni ko'zi bilan ko'rib, bevosita topshiriqni bajarishda o'zi ham ishtirok etsa har qanday murakkab mavzuni ham oson, zerikarsiz o'zlashtira oladi. Yana bir jihatni bola ekran orqali ko'rgan narsasini uzoq vaqt xotirasida saqlaydi. Endi bo'g'in ko'chirish mavzusiga oid ta'limiy o'yinlarga to'xtalib o'tsam.

"Olmaxonga yordam ber" o'yini.

Bunda bolalar berilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirishda olmaxonga yordam berishlari kerak bo'ladi. So'zni to'g'ri bo'g'inga bo'lgan o'quvchi olmaxondan rag'bat oladi.



O'quvchilar so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra yozadilar: ko'-ngil, si-ngil, tong, ko'ng- lim, sing- lim, tong- gi

Bu o'yin orqali o'quvchilr bir tovushni ko'rsatuvchi harf birikmalari (sh, ch, ng) birgalikda ko'chirilishini bilib oladilar.

1. Hikmatlarni o'qing. Gaplardagi so'zlarni bo'g'inga bo'lib yozing har bir bo'g'inni nechta tovushdan tuzilganligini ayting

Farzand guldir. Ona bir bo'ston,
Ona bilan olam guliston.

Yaxshining so'zi qaymoq,
Yomonning so'zi to'qmoq.

Far-zand gul-dir. O-na bir bo's-ton,
O-na bi-lan o-lam gu-liston.

Yax-shining so'-zi qay-moq,
Yo-monning so'-zi to'q-moq.

2. Berilgan so'zlarni tovush va harf tomondan tahlil qiling.

tovushlar soni

harflar soni

unli tovushlar

daraxtlar

bo'g'in ko'chirish

undosh tovushlar

jarangli jarangsiz

daraxtlar

10 9 3 5 7 2 4 6 1 8

o' o s d y h t m u a e, k r i l x

tovushlar soni

harflar soni

unli tovushlar

daraxtlar

bo'g'in ko'chirish

undosh tovushlar

jarangli jarangsiz

da-raxtlar

10 9 3 5 7 2 4 6 1 8

d, r, r x, t



Xulosa qilib aytganda, murakkab mavzuni o'quvchiga yetkazishda turli xil didaktik o'yinlar tarqatma meteriallar, ayniqsa, dars jarayonida AKT dan foydalanish orqali sinfdagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham mavzuni qulay usulda oson o'zlashtirishiga erishish mukin. Bu ta'lim samaradorligini yuqori sifat darajasiga ko'tarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Erkaboyeva Ona tili. Boshlang'ich saboqlar. T: "Adabiyot uchqunlari", 2018. 14-bet
2. 4-sinf ona tili darsligi.